

OILADAGI BOLA TARBIYASINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Madatova Tamam Elman qizi

Guliston davlat pedagogika instituti

6-23 M-PP magistri

U. U. Shukurova

taqrizi ostida

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11313826>

Anontatsiya. Mazkur maqolada jamiyatda oilaning o'rnini, farzand tarbiyasida oilaning psixologik hamda ijtimoiy vazifalari hususida fikr yuritilgan. Maqolada oilaviy munosabatlarning barqarorligi farzand tarbiyasiga ko'rsatadigan ta'siri, tarbiya masalasida berilishi lozim bo'lgan asosiy e'tiborli jihatlari, shuningdek to'g'ri tanlanganlik oilaviy juftliklarning tinch-totuvligi sabab, bu xonadonda tarbiya ko'rgan farzandlarning ham tarbiyasida vazminlik va xotirjamlik jihatlari yaqqol namoyon bo'lishi masalalari ham psixologik nuqtai nazardan keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: oila, jamiyat, farzand, tarbiya, maktab, mahalla, ijtimoiy muhit, genetika, ta'lim, psixologik yondashuv, qadriyat.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CHILD EDUCATION IN THE FAMILY

Abstract. This article discusses the role of the family in society, the psychological and social functions of the family in raising children. In the article, the impact of the stability of family relations on the upbringing of children, the main aspects that should be taken into account in the matter of upbringing, as well as the right choice is the reason for the peace of family couples, restraint in the upbringing of children who are brought up in this household. and the issues of the manifestation of calmness aspects are also covered from a psychological point of view.

Key words: family, society, child, upbringing, school, neighborhood, social environment, genetics, education, psychological approach, value.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБРАЗОВАНИЯ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается роль семьи в обществе, психологические и социальные функции семьи в воспитании детей. В статье рассмотрено влияние стабильности семейных отношений на воспитание детей, основные аспекты, которые следует учитывать в вопросе воспитания, а также правильный выбор является причиной спокойствия семейных пар, сдержанности. в воспитании детей, воспитывающихся в этом домашнем хозяйстве, освещаются и вопросы проявления аспектов спокойствия с психологической точки зрения.

Ключевые слова: семья, общество, ребенок, воспитание, школа, соседство, социальная среда, генетика, образование, психологический подход, ценность.

Kishilik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti tarixidan ma'lumki, bola shaxsining kamoloti oilada shakllanadi. Oila — jamiyat hayotining kichik bir debochasi bo'lib, har tomonlama sog'lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun ma'sul bo'lgan g'oyat muhim tarbiya o'chog'dir.

Oila tarbiyasi — oilada ota-ona, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash.

Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta‘sirchan kuch — oilada ruhiy xotir-jamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro‘sining yuqori bo‘lishi, bolalarga talab qo‘yishda oila kattalari o‘rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e‘tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo‘yish, oilada qat‘iy rejim va kun tartibini o‘rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlari-nl hisobga olish, boladagi o‘zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo‘llab- quvvatlash va h.k. Oila qanchalik tartibli, uning a‘zolari o‘rtasidagi munosabat samimiy bo‘lsa, Oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi. Oila tarbiyasida ota-ona obro‘si, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Oila tarbiyasida tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgo‘ylikdan iborat bo‘lib qolmasligi lozim. Bola hayotining ko‘p qismi oilada o‘tadi. Shu boisdan mavjud an‘analari, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta‘sirida bola asta-sekin ka-mol topib boradi.

An‘ana va marosim Oila tarbiyasining qudratli qurolidir. Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo‘lsagina, kutilgan natijalarga eri-shish mumkin. Oila tarbiyasida yutuklarga erishish ota-onalarning pedagogik bilimlarga egaligi, Oila tarbiyasi bo‘yicha tajribalar alma-shishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg‘in jalb qilishga ham bog‘liqdir.

Har bir ota-ona Oila tarbiyasida o‘zlarining burch va mas‘uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Normal oilaviy muhit, bolani kitob o‘qishga, mehnat qilishga o‘z vaqtida jalb etish ham Oila tarbiyasining muvaffaqiyati garovidir. Oilada ota yoki onaning yo‘qligi yoki ulardan birining ketib qolishi Oila tarbiyasiga katta zarar yetkazadi. Ularning bolaga beradigan tarbiyaviy ta‘sir kuchi yo‘qoladi, Oila tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bola qalbi qat-tiq jarohatlanadi, u tajang, serjahl, qo‘pol, dag‘al bo‘lib qoladi, kattalarga ishonmay qo‘yadi, o‘qishi pasayib ketadi. Oila tarbiyasida otaning obro‘si katta ahamiyatga ega. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan bog‘lamasdan muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun Oila tarbiyasida maktab va ota-onalar o‘rtasidagi ta‘limtarbiyaga oid birgalikdagi ishlari katta ahamiyatga ega. Ota-onalarning o‘qituvchilar bilan bo‘lgan uchrashuvlarida aytilgan fikrlar, ayniqsa qimmatlidir. Chunki ular o‘z farzandlari to‘g‘risida ko‘proq narsalarni bilib oladilar.

Shuning uchun bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan har bir ota-ona oila bilan maktab o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Bola maktabni tamomlagunga qadar ota-ona maktab bilan yaqin aloqa o‘rnatishi, farzandining darslarini o‘zlashtirishi, xulq-atvoridan xabardor bo‘lib turishi, tarbiya masalalarida o‘qituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so‘ng nima bilan mashg‘ulligi haqida o‘qituvchi va sinf rahbarini xabardor qilib turishi lozim.

O‘z navbatida o‘qituvchi va sinf rahbari ham bolaning o‘qishi, odobi, xulqi, maktabda o‘zini tuta bilishi haqidagi ma‘lumotlarni ota-onaga yetkazishi, zarurat tug‘ilganda paydo bo‘lgan muammolarni birgalikda hal qilishi zarur. Farzandi maktabga borgan ota-ona maktab jamoasining a‘zosi bo‘lib qolishi kerak. O‘qituvchi va sinf rahbari ham o‘z o‘quvchisining oilasi bilan mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘ymog‘i lozim. Oila tarbiyasida ota-onalarning mahalla faollari, mehnat faxriylari bilan hamkorliklari ham muhim. Oila tarbiyasi farzandlarning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsagina muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin.

Oila tarbiyasida har bir oila o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. "Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona" degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o'zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko'chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o'tib ketmagan, shu zahotiy oq tanbeh berib to'g'ri yo'lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go'zal xulqli bo'lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi.

Istiqlol tufayli xalqimiz chet-el yurtlarini kezib yangi xalq va urf-odatlarini guvohi bo'lib qaytmoqdalar. Shu jumladan Yevropa davlatlariga sayr qilib kelayotgan fuqarolarimiz bugungi kunda g'arb o'smirlari orasida boshqa mamlakatlar yoshlariga qaraganda uyushgan jinoyatchilik va zo'ravonlikka berilish holati yuqori. Bunga sabab bolalarga keragidan ortiq erkinlik berilgani ekan. Ularni hozirdan aysh-ishratga berilib, turli axloqsiz hatti-harakatlarga ruju qo'yishdan hech kim qaytarmasligini aytib berishmoqda. Inson hayoti davomida biror shaxsni o'ziga o'rnak deb biladi, bundan inson u kabi hayot kechirishni, u erishgan yutuqlar kabi muvaffaqiyatlarga erishishni, yuksak cho'qqilarga chiqishni ko'zlaydi. Bugun jamiyatning yosh a'zolari o'z hayotlari uchun boshqa madaniyat vakillarining fikrlash va hayot tarzini o'rnak qilib olishlari ko'p muammolarni keltirib chiqarmoqda. XXI asrda turli hayot tarzlari va g'oyalar raqobatga kirishdi.

Bunda muvaffaqiyatga erishish uchun har bir davlat o'zligini saqlagan holda diniy va milliy qadriyatlarini boshqalarga anglatishni asos qilgan mafkuraga ega bo'lishi lozim. Aks holda, o'zlikni yo'qotish, bebaho qadriyatlardan voz kechish kishini taraqqiyotdan ajratib, uni tobe, mustaqil fikri yo'q manqurtga aylantirib qo'yadi.

Hozirgi kunda g'arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun zimdan olib borilayotgan fitnalar ba'zi millatlarning o'zligini yo'qotishga qaratilganini sezish mumkin. Bunda e'tibor xududlarini egallash emas, balki inson ongini egallashga yo'naltirilgan. Albatta bola tarbiyasi o'ta murakkab va ma'suliyatlidir. Bu har bir otaonadan o'z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma'lumotlardan baxobar bo'lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniyaxloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir.

Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada bolaga estetik, jinsiy tarbiya, axloqiy tarbiya berish sifati va ko'lamini oshirish talabini qo'yadi. Ta'lim-tarbiya, odob-axloq bolalikdan berilgani ma'qul. Rasululloh (a.s.): "Birontangiz o'z farzandlaringizni tartib-intizomga o'rgatsa, bu har kuni sadaqa bergandan yaxshiroqdir", deya marhamat qilganlar.

Oilada psixologik tarbiya muhimdir, chunki uni o'zida mujassam etgan oila farzandlar tarbiyasida ham ancha harakatlar samarasini ko'radi hamda bola erkinlik orqali o'ziga ishonchi oshadi. Psixologik tarbiya kelajakda o'zingiz, do'stlaringiz va xayotingiz bilan qanday o'zaro munosabatlarni o'rganishda juda muhim bo'ladi. Eng muhim qismi, bolalar uchun qulay va ko'tarilgan atmosferani yaratishdir. Ular o'z fikrlari va hissiyotlarini ifodalash uchun o'zi mustaqil o'qish va tushunchalarga ega bo'lishi uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak.

Psixologik tarbiya keng ko'rinishda oilaning farzandlarga sodiqlik, adolat, empatiya va boshqa odamlarga qarshi hurmatni qanday ko'rsatishni ham asosiy tarbiya vositasi sifatida tushunadi. Bolalar o'zlari yaxshi namoyon etmagan voqealarda ham ota-onalari ularni tushunish va qo'llab-quvvatlashiga ehtiyoj sezishlari ham mumkin.

Oiladagi psixologik tarbiya a'zolari o'rtasidagi qarashlarni amalga oshirish, muomala qilishning ishonchli va himoyador usullarini o'rganish va o'rnatishda muhim ahamiyatga ega.

Oilada psixologik tarbiya, farzandlarni o'z xatolaridan o'qib olish va ularni o'z xatolaridan to'g'ri xulosa qilishni o'rgatishga, o'zlarini yangilovchi va shaxsiy rivojlantiruvchi yondashishga olib keladi. Bo'lgan voqea negativ bo'lsa yoki yaxshi bo'lsa, oiladagi psixologik tarbiya uning muammosini tahlil qilishga va yechim topishga yordam bera olishi kerak. Bu tarzda munosabatlar va harakatlar oila a'zolari orasidagi aloqalarni kuchaytiradi va oilaning o'sishiga yordam beradi.

Oila tarbiyasida insonning rolini o'rganish uchun sifatli intervyular va miqdoriy so'rovlarni birlashtirgan aralash usulli yondashuv qabul qilindi. Turli xil diniy va ma'naviy kelib chiqishni ifodalovchi turli xil oilalar namunalari tanlandi. Ishtirokchilar orasida turli yosh guruhlarini qamrab olgan ota-onalar va ularning farzandlari bor edi. Oilada insonni tarbiyalash murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, bolalarda diniy yoki ma'naviy e'tiqodlar, qadriyatlar va amaliyotlarni singdirishni o'z ichiga oladi. Ushbu tarbiya sog'lom psixikani shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va inson rivojlanishiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan psixologik mohiyatga ega.

Oilada inson tarbiyasining tarkibiy qismlari va ahamiyatini batafsil ko'rib chiqamiz:

Axloqiy qadriyatlar: e'tiqod tarbiyasi ko'pincha bolaning xulq-atvori va qaror qabul qilishiga rahbarlik qiluvchi axloqiy va axloqiy qadriyatlarni berishni o'z ichiga oladi. Bu qadriyatlar sevgi, rahm-shafqat, halollik, kechirimlilik va kamtarlik kabi tushunchalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Marosimlar va amaliyotlar: insonni tarbiyalash ibodat, meditatsiya, diniy marosimlarda qatnashish va diniy bayramlar yoki marosimlarda qatnashish kabi diniy yoki ma'naviy marosimlar va amaliyotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu marosimlar jamoat va urf-odatlar tuyg'usini ta'minlaydi va ular bolaning hayotida qulaylik va tuzilishni taklif qilishi mumkin. Jamiyat va ijtimoiy aloqa: ko'pgina dinlar jamiyat va ijtimoiy aloqalarning muhimligini ta'kidlaydilar. Diniy jamoada ishtirok etish tegishlilik hissi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishi mumkin.

Ushbu munosabatlar xavfsizlik tarmog'i va bolalar va oilalar uchun hissiy yordam manbai bo'lishi mumkin.

Psixologik foydalar: inson tarbiyasining psixologik mohiyati hissiy farovonlik, ichki tinchlik va maqsad tuyg'usini targ'ib qilishni o'z ichiga oladi. Inson odamlarga stress, tashvish va depressiyani boshqarishga yordam beradi va bu umumiy hayotdan qoniqishning oshishiga yordam beradi.

Ota-ona va bola munosabatlari: insonni tarbiyalashda oila asosiy rol o'ynaydi. Ota-onalar ko'pincha o'z e'tiqodlari va harakatlari orqali farzandlarini o'rgatib, namuna sifatida xizmat qilishadi. Inson haqida ochiq va qo'llab-quvvatlovchi muloqot juda muhim, bu bolalarga xavfsiz va tarbiyali muhitda savollar berish va o'z e'tiqodlarini o'rganish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlash va izlanish: bolalarni o'z e'tiqodlari va e'tiqodlarini tanqidiy o'rganishga undash juda muhimdir. Bu ularga passiv ravishda qabul qilishdan ko'ra, chuqurroq tushunish va o'z e'tiqodlari bilan shaxsiy aloqani rivojlantirishga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash va izlanish

yanada mustahkam va mazmunli inson tajribasiga olib kelishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, e'tiqod tarbiyasi madaniy, diniy va falsafiy kelib chiqishiga qarab bir oiladan boshqasiga sezilarli darajada farq qilishi mumkin.

Inson tarbiyasining bola ruhiyatiga ta'siri ham turlicha. Ko'pchilik buni foydali deb bilsada, shaxsiy e'tiqodlar va oilaviy an'analar o'rtasidagi potentsial ziddiyatlar kabi qiyinchiliklar ham bo'lishi mumkin.

X.Karimovning ilmiy ishlarida o'zbek oilasida er-xotin orasidagi nizolar boshqa millat vakillari (rus, ukrain va boshqa) oilalaridagi nizolardan farqlanishi, ya'ni o'ziga xos etnopsixologik xususiyatlarga ega ekanligi aniqlangan o'zbek oilalaridagi er-xotin orasida nizolarning kelib chiqishiga milliy-madaniy muhitiga xos bo'lgan nikoholdi omillarining xususiyatlari: ya'ni ba'zida tanishish imkoniyatining bo'lmasligi yoki qisqaligi ham ta'sir etishi, natijada yuzaga kelgan nizo sabablarini tomonlar o'zidan qidirmasligi, uni bartaraf etishda ota-onalarga tayanish, oiladagi o'zaro munosabatlar qo'pollik asosiga qurilishi va boshqa bir qator salbiy holatlar yuzaga kelishi ko'rsatib o'tiladi.

Bugungi kunda oila muammosiga aloqador masala uning barqarorligini ta'minlash, undagi inqirozli holatlarni bartaraf etish choratadbirlarini ishlab chiqishga davat etadi. Oilada bola nutqni egallashi uchun nutq sharoitida, mehnat qilish uchun mehnat sharoitida, aqliy taraqqiy etmog'i uchun aqliy faoliyat sharoitida yashamog'i kerak. Ana o'shanda bolaning nimaga, qanday sohaga layoqati borligi namoyon bo'ladi. fiziologik va psixologiya fanining ko'rsatilishicha inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror xil qobiliyatni ro'yobga chiqishi va rivojlanishiga ta'sir etadigan potentsial imkoniyatlar, ya'ni shaxs xususiyatini ifodalaydigan layoqat bilan tug'iladi.

Tug'ma layoqat o'z holicha rivojlana olmaydi, go'yo u «mudroq» holatda bo'lib, uning uyg'onishi rivojlanishi uchun qulay muhit kerak. Agar bola o'z layoqatiga mos sharoitda o'sib zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat erta ko'rinib, rivojlanishi, aksincha bu bo'lmasa yo'q bo'lib, ketishi mumkin. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish muammosi insoniyat oldida turgan eng muhim muammolardan biridir. U o'zida jismonan sog'lom, aqlan barkamol yangi avlodni voyaga yetkazishni, kishilarning mehnat qilishi, dam olishini va ijtimoiy faoliyat ko'rsatishini to'g'ri tashkil etishni, oqilona hayot kechirishi mujassamlashtiradi. Shuning uchun sog'lom turmush tarzini shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy-gigienik, ma'naviy jihatlarni har tomonlama o'rganish, vujudga kelgan haqiqiy ahvolni hisobga olib tadqiq etish davr talabidir.

Oilani moddiy imkoniyatlarini yaratish, ota-onalarning ongliligi, ma'naviyatini boyitish sog'lom turmush tarzini shakllantirish imkoniyatini tug'diradi. Sog'lom turmush tarzi esa farzandlarni jismonan sog'lom, ma'nau boy qilib o'stirishga imkoniyat yaratadi.

Yurtimiz ulamolari o'z asarlarida farzandining chiroyli odobidan umid qilgan ota-ona, uni muntazam ravishda husni xulq asosi bo'lgan muomala odobining quyidagi qirralari bilan tanishtirib borishi muhim ekanini alohida ta'kidlaganlar:

- farzandingiz odamlar bilan muomalada shirinso'z, muloyim, bosiq va kamtar bo'lishiga e'tibor qarating;

- odamlar xursandchiligini baham ko'rish, g'am-anduhidan qayg'urish, molmulkiga xiyonat qilmaslik, yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarish husni xulq egalariga xos fazilatlardandir.

Shuning uchun farzandingizga ana shu xislatlarni bolalikdan singdirish payida bo'ling;

- farzandingizga o‘zgaralar bilan muomala chog‘ida boshqalarni g‘iybat qilish, o‘zgalarni mensimaslik, obro‘si, boyligi yoki mansabiga qarab munosabat ko‘rsatish ham odobsizlik ekanini uqtirib boring;

- yoshi ulug‘ kishilar, ustozlar bilan muomalada ularning ko‘ziga tik boqmay, gaplarini jim tinglash, savollarigagina javob qaytarish, buyruqlarini sidqidildan bajarish ham bolalar qalbiga jo qilishga e‘tibor bering.

REFERENCES

1. Akramova F.A. Oilada ma‘naviy muhitni shakllantirishda xotin-qizlarning roli. - T.: «Nixol Print», 2016. -42-b.
2. Akramova F.A. Oilada sog‘lom psixologik muhitni tarkib toptirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. - T.: : «Shams ASA», 2014. -185-b.
3. Akramova F.A. Oilada muomalani tashkil etish psixologiyasi. – T.: «Shams ASA», 2006. - 90-b. 7. Yo‘ldoshev M. Oiladagi ruhiy muhit va uning tarbiyaga ta’siri. – T., 2004. -99-b.
4. Umida IBAYDULLAYEVA, Rustam ABDURASULOV The influence of the level of conflict of adolescents on their psychological level/
5. R Abdurasulov, U Ibaydullayeva METHODS OF OVERCOMING INTERNAL CONFLICTS BETWEEN TEENAGERS/Архив Научных Публикаций JSPI, 2020
6. Ibaydullayeva, U., & Mamatqulova, Y. (2022). Ota-ona va farzandlar ortasidagi inqirozli vaziyatlarda psixologik yordam korsatishning oziga xos xususiyatlari. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollor, 1(1), 471–473. Retrieved from
7. Qarshiboyeva, G.A., Ibaydullayeva, U., Oila psixologiyasi// O‘quv qo‘llanma/ 2022, b.256